

## Misr fir'avni



16:00 / 25.07.2021 7247

Misr taxtiga Bani Isroilni haddan ziyod yomon ko'ruvchi Misr fir'avnlari ya'ni, podshohlari kelishdi. Misr taxtiga o'ta zolim bir kishi bo'lib, bani Isroilning payg'ambarlar avlodidan ekanini hamda ularning ulug' Misr shohi Yusuf alayhissalomga qondoshligini tan olmasdi. Hatto ularga rahmat va insofga haqli bashar sifatida qaramas edi. Misrning taxtiga juda ham zolim bo'lgan bir podshoh keldi. Fir'avn o'z qavmi qibtiylar bilan Bani Isroil orasida katta farq ko'rardi. Uningcha, qibtiylar – shohlar avlodi va hukmronlik qilish uchun yaratilganlar. Bani Isroil esa qullar bo'lib, ular faqat xizmatkor bo'lmoqlari kerak. Fir'avn Bani Isroilga eshak va hayvonlar sifatida qaradi. Inson u hayvonlarni faqat ishlatadi (yiqilib qolmasliklari uchun) ozgina narsa berganidek. Fir'avn o'zini hammadan yuqori qo'yadigan mutakabbir shoh edi. Alloh taologa iymon keltirmagan bu zolim: «Men sizlarning eng Oliy Parvardigoringizman» derdi. O'zining mol-davlati, qasrlari va kuch-qudrati bilan mag'rurlanib: «**Misr mulki**

**va** (oyoqlarim) **tagidan oquvchi mana bu daryolar meniki emasmi?! Ko'rmaysizlarmi?!**», der edi. U Babil shohi Namrudga o'rinbosar bo'la olardi. Agar kimdir undan o'zgani oliy sanaydigan bo'lsa, darg'azab bo'lardi. Fir'avn odamlarni o'ziga ibodat qildirdi. Xalq Fir'avn qarshisiga tiz cho'kib, sajdalar etardi. Lekin Bani Isroil Allohga va Uning rasullariga mo'min bo'lganliklari bois, Fir'avnga sajda qilishdan bosh tortishdi. Fir'avnning g'azabi Yaqub avlodi ya'ni, Bani Isro ustidan kuchaydi.

***Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy***

***Tarjimon Anvar Ahmad***